

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi**

**Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'rganiladigan
davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim
muassasalarining 3-4-sinflari uchun ona tili fanidan
o'quv dasturi**

Toshkent-2015

TUZUVCHI MUALLIF:

**X.G`ulomova - TTYMI qoshidagi 2-son
akademik litsey bosh o`qituvchisi**

O'QUV DASTURIGA TUSHUNTIRISH XATI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-PQ-sonli, 2014- yil 19- fevralda "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2133-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 13- mayda "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli, 1999- yil 16- avgustda "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli, 2008- yil 7- avgustda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 173-sonli, 2011 yil 9 sentyabrda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 254-sonli, 2013- yil 8- mayda "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining 2014- yil 11- iyunda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq huquq va ona tili fanlari chuqurlashtirilib o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarining 3-sinflari uchun ona tili fani dasturi quyidagi yo'nalishlarni qamrab olgan holda tuzildi:

O'quv reja tarkiban davlat komponentlaridan iborat.

Huquq bilim asoslari va ona tili fanlari chuqur o'rganiladigan 3-sinflarda qo'shimcha soatlar ona tili fanidan 0,5 soat hajmda olib beriladi.

O'quv soatlarining taqsimoti

Iqtisodiy bilim asoslari va ona tili fanlari chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 3-sinflarida ona tili fanidan choraklik va yillik o'quv soatlari miqdori.

Umumiy ajratilgan soat – 187 soat

O'quv choraklari	Haftalar soni	Ajratilgan soat		
		II	III	IV
1-chorak (2.09-3.11)	9 hafta	41	49	49
2-chorak (11.11-29.12)	7 hafta	31	40	40
3-chorak (10.01-20.03)	10 hafta	45	54	54
4-chorak (1.04-24.05)	8 hafta	36	44	44
Haftalik soat	-	4,5	5,5	5,5
O'quv yili soati	-	153	187	187

**Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim
muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan
umumta'lim muassasalarining
3-sinflari uchun
ona tili fani o'quv mavzulari taqsimoti**

(204-17=187 soat)

№	O'quv dasturi materiali
1.	2-sinfda o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish (6 soat)
	Nutq va gap, gap va matn . So'z. Gap. Fikr bildirish maqsadiga ko'ra uning turlari, gapning kim? yoki nima? haqida aytilganini va u haqida nima deyilganini bildirgan so'zlar. So 'z va so'zlarning nomlashga ko'ra guruhlanishi.
	Tovushlar va harflar (16 soat)
	Unli va undosh tovushlar va harflar. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarga bo'lib ko'chirish qoidalari. So'zlarni bo'g'in, tovush va tovush – harf jihatdan tahlil qilish; Tutuq belgisi va uning ishlatilishi. <i>Sh, ch, ng</i> harf birikmalari ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlar va ularning imlosi. So'z oxirida kelgan, jarangli jarangsiz jufti bor undoshlar imlosi.
2.	Gap (12 soat)
	Gap. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap. Gapning his-hayajonning ishtirokiga ko'ra turlari: Nuqta,(.) so'roq(?) belgilari, his – hayajon bilan aytilgan gapning oxiriga undov belgisining qo'yilishi.
	Gap bo'laklari.(15 soat)
	Gapning bosh bo'laklari, ikkinchi darajali bo'laklari (ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi). Ikkinchi darajali bo'laklarning so'roqlari. Ega va kesim mazmunini to'ldirishda ikkinchi darajali bo'laklarning ahamiyati. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishini so'roqlar yordamida

	aniqlash. O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash.
3.	So`z tarkibi (20 soat)
	So`zning tarkibi haqida umumiy tushuncha: O`zak va o`zakdosh so`zlar. So`z yasovchi qo`shimchalar, yasovchi qo`shimchalarning o`zakdosh (bir hil o`zakli) so`zlar hosil qilishi. So`z o`zgartuvchi qo`shimchalar.
4.	So`z turkumlari (3 soat)
	So`z turkumlari haqida umumiy tushuncha. So`zlarning ma'no va vazifasiga ko'ra guruh-turkumlarga bo'linishi: <i>ot</i>, <i>sifat</i>, <i>son</i>, <i>fe'l</i>. Ot.(26 soat) Otlarning shaxs va narsalarning nomini bildirishi va <i>kim?</i>, <i>nima?</i> so'roqlariga javob bo'lishi: Otlarning birlik va ko'plik shaklida qo'llanilishi ularning <i>kim?</i> <i>kimlar?</i> <i>nima?</i> <i>nimalar?</i> so'roqlariga javob bo'lishi. –<i>lar</i> qo'shimchasining imlosi. Ot yasovchi qo'shimchalar:– <i>chi</i>, –<i>dosh</i>,–<i>kor</i>,–<i>zo'r</i>, –<i>loq</i> va ularning imlosi. Sifat.(22 soat) Sifatning shaxs va narsalar belgisini bildirishi va <i>qanday?</i> <i>qanaqa?</i> so'roqlariga javob bo'lishi. Sifatning ot (<i>keng dala</i>)ga bog'lanishi. Sifatning ma'no turlari. Sifat yasovchi qo'shimchalar - <i>li</i>, –<i>siz</i>, –<i>dor</i>, ularning imlosi. Son.(4 soat) Sonning shaxs va narsalarning sanog'ini, tartibini bildiruvchi va <i>nechta?</i>, <i>qancha?</i>, <i>nechanchi?</i> so'roqlariga javob bo'lishi. <i>Nechta?</i> <i>qancha?</i> shaxs va narsalar miqdorini, <i>nechanchi?</i> so'rog'i esa ularning joylashish tartibini bildirishi: Sonlarning otlarga bog'lanib kelishi (<i>o'n</i>, <i>kun</i>, <i>oltita qalam</i>, <i>uchinchi sinf.</i>). Sanoqni bildirgan sonlarga –<i>ta</i> qo'shimchasining qo'shilishi (<i>to'rtta</i>, <i>mingta</i>); –<i>nchi</i> (–<i>inchi</i>) qo'shimchalarining qo'shib (<i>ettinchi</i>, <i>beshinchi</i>) tartib sonlarni hosil qilishi. Sonlarning so`z va raqam bilan ifodalanishi.(6-qavat, oltinchi qavat) va ularning imlosi. Tarixiy sanalar bilan bog'liq matnlar yaratish. Fe'l.(22 soat) Fe'lning shaxs va narsalar harakatini bildirishi va <i>nima qildi?</i> <i>nima qilyapti?</i> <i>nima qiladi?</i> so'roqlari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. <i>Nima qilmaydi?</i> so'rog'iga javob bo'lgan bo'lishsiz fe'llar (aytmaydi) va –<i>ma</i> qo'shimchasining aytilishi va imlosi. Fe'l yasovchi qo'shimchalar.
5.	

	Bogʻlanishli nutq.
	Yozma nutq va uning matn shaklida namoyon boʻlishi. Matnni mazmunan tugallangan qismlarga boʻlish. Matn qismlariga sarlavha tanlash; matn qismlarini va har bir qismdagi gaplarni oʻzaro bogliqligi; matnning tuzilishi: <i>kirish qismi, asosiy fikr, oxirgi xulosa qismi</i> va ularni belgilash. Xabar (hikoya), harakat haqidagi matnni berilgan yoki oʻquvchi oʻzi tuzgan reja asosida qayta bayon qilish; bir mavzudagi bir necha rasm, mazmunli rasm asosida, shuningdek, oʻquvchilarning hayotiga yaqin boʻlgan voqealar (<i>oʻyinlar, tabiatni kuzatish, sayohatlar</i>) haqida matn tuzish; birgalikdagi tayyorgarlikdan soʻng ogʻzaki yoki yozma ifodalash; bayon va inshoga asta- sekin tasvirlash va muhokama elementli 2-3 gapni qoʻshib borish, oʻz ishlari haqida xat yozish. Bogʻlanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini oʻrganish jarayonida unga bogʻliq holda oʻtkaziladi. Matnni ijodiy oʻqish va uni tarkibiy qismlarga ajratish. Har bir qismdagi asosiy fikrni topish yoki oʻz soʻzlari bilan ifodalash. Matn qismlariga sinf jamoasi bilan birgalikda reja tuzish. Reja asosida toʻliq, qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash. Matnga sarlavha qoʻyish, Tahliliy bayon, 70-80 soʻzli matn asosida hikoya, tasvir, muhokama elementli bayon yozish. Matnni toʻliq qisqartirib yodlash va qayta hikoyalash asosida bayon yozish. Taʼlimiy insho, syujetli rasm oʻqilgan tayyor koʻrilgan kino film, sayohat davomida kuzatilgan voqiyalar, koʻrinishlar asosida insho yozish. Inshoda tasvir, muhokama elementlaridan foydalanish. Bayon uchun “Asosiy va yordamchi biznes” (biznes - tadbirkorlik), “Tadbirkorlikning axloqiy qoidalari”, “Xonadon xoʻjaligi” haqidagi matnlar tanlanishi. Insho yozishga oʻrgatishda mavzuni tushunish, chegarasini belgilab olish, material toʻplash, mavzuga doir materiallarni ajratish, mantiqan tartibga solish, reja tuzish va yozma shakllantirish, xatolar ustida ishlash koʻnikmasini shakllantirish. “Mening burchim”, “Mening huquqim”, kabi mavzularida insho yozdirish. Bu insholarga oldingi darslarda rasm va maʼlumotlar asosida tayyorgarlik koʻrish. Taklifnoma, tabriknoma, xat, xabarnoma yozish, alifbo tartibida roʻyxat tuza bilish. Nutq madaniyati. Ogʻzaki va yozma nutqda taklif, tabrik, iltimos kabilarni ifodalaydigan soʻzlardan foydalanish; bogʻlanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini oʻrganish jarayonida unga bogʻliq holda oʻtkaziladi.

	Lugʻaviy mashqlar va grammatik materillarini oʻrganish bilan bogʻliq holda oʻtkaziladi. Maʼnodosh soʻzlar, shakldosh soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzlar.
	Husnixat (34 soat)
	Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash. Bolalarni bir chiziqli daftarda yozishni mashq qildirish; (harflarning balandlik va kenglik oʻlchamini oʻzlashtirish) oʻquvchilar uchun qiyin boʻlgan ayrim bosh va kichik harflarni (I, S, H, f, q, p, s) yozishga shuningdek, harflarni toʻgʻri tutashtirishga rioya qilish, soʻzlar, gaplarni koʻchirib yozish, eshitib yozish.
6.	Oʻquv yili oxiridagi takrorlash. (7 soat)

**Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim
muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan
umumta'lim muassasalarining
4-sinflari uchun
ona tili fani o'quv mavzulari taqsimoti**

(204-17=187 soat)

№	O'quv dasturi materiali
1.	3-sinfda o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish (6 soat)
	Takrorlash. Gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ularning fikr ifodalashi. Gapni tugallangan ohang bilan, buyruq, tinch va his-hayajon ohangida aytilishi; gap ohangiga ko'ra tinch belgilarinihg ishlatilishi (nuqta, so'roq, undov belgilari); gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; gapda so'zlarni o'rnli qo'llash, lug'atdan foydalanish malakasini shakllantirish.
2.	Gap bo'laklari (10 soat)
	Gap. Bosh bo'laklar: Ega va kesim ularning so'roqlari, ikkinchi darajali bo'laklar, ularning so'roqlari, gapda so'zlarning bog'lanishi; gap bo'laklarini bog'lovchi grammatik vositalar: ohang yordamida bog'lanish (masalan, <i>katta bino, a'lo o'qing, ikki qadam</i> kabi); so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar yordamida bog'lanishi (masalan, <i>hikoyani o'qimoq, daraxtning bargi, senga aytmoqchiman</i> kabi); so'zlar yordamida bo'g'lanish (va, hamda, lekin, biroq, ammo).
3.	Gapning uyushiq bo'laklari (10 soat)
	Gapda bir bo'lakning birdan ortiq qo'llanishi — uyushiq bo'laklar. Kesim, ega va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushib kelishi. Uyushiq bo'lakni sanash ohangi bilan o'qish; uyushiq bo'laklarning bog'lanishi: - sanash ohangi yordamida; - va, hamda, ammo, lekin, biroq so'zlari yordamida; -uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi.
4	Undalma (6 soat)
	Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ekanligi; bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi; uning o'ziga xos xususiyati: gap tarkibida gap bo'lagi vazifasini bajarmasligi, gapda boshqa bo'laklar bilan bog'lanmasligi;

	o'ziga xos undash; chaqirish ohangi bilan aytilishi; gapning boshida, oxirida, o'rtasida qo'llanishi; undalma qatnashgan gaplarda undash yoki chaqirish ohangining kuchli yoki kuchsizligiga qarab, undalmadan so'ng vergul yoki undov belgisining qo'yilishi.
5	Nutq. Matn. (12 soat)
	Matnning gapdan farqi, matnlarni mazmunan qismlarga bo'lish va matn qismlariga sarlavha qo'yish, matnning tizilishi; bir kishining nutqi, ikki va undan ortiq kishining nutqi. Matnning o'ziga xos xususiyatlari. Sarlavha. Matnni ifodali o'qish va savodli yozish; tayyor matnni o'qish va qayta hikoyalash. Bayon haqida tushuncha "Tabiatni muhofaza qilish", "Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish", "Aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash" mavzusidagi matnlarga sarlavha qo'yish va shu kabi mavzularda matnlar yaratish va yozish.
6	Tovushlar va harflar (10 soat)
	Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli so'zlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi; bir xil qo'sh undoshli so'zlar va ularning imlosi; so'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlar va ularning imlosi, x-h tovushli so'zlar va ularning imlosi, tutuq belgisining so'z ma'nolarini farqlashi. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi; so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirish; so'zlarni bo'g'in, tovush va harf jihatdan tahlil qilish. Alifbo. So'zlarni alifbo tartibida qayta tuzish. Alifboning ahamiyati.
7	So'z va so'z tarkibi (4 soat)
	So'z, uning tarkibiy qismi, o'zak va qo'shimchalar, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlarini, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, so'z tarkibini aniqlashga oid mashqlar, o'zak va qo'shimchalarni aniqlash va belgilash. Matndan o'zakdosh so'zlarni ajrata olish; bir xil o'zakli so'zlar hosil qilish; so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib, o'zakdosh so'zlarni hosil qilish; tilning rivojlanib, boyib borishi haqida tushunchani shakllantirish.

8	Soʻz turkumlarini takrorlash (3 soat)
	Ot. Otning ma'no turlari, shaxs otlari, narsa otlari, joy otlari. <i>Kim?</i>, <i>nima?</i>, <i>qayer?</i> so'roqlaridan biriga javob bo'lishi; otlarning bosh va kichik harflar bilan yozilishi. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi. Otlarning bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Sifat. Sifatning ma'no turlari va so'roqlari (<i>qan day?</i> <i>qanaqa?</i>). Sifatlarning otga bog'lanishi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Son. Sonning <i>necha?</i>, <i>qancha?</i>, <i>nechanchi?</i> so'roqlariga javob bo'lishi; Sonning otga bog'lanishi, kishilik olmoshlari ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Fe'l. Fe'lning harakat bildirishi va so'roqlari (<i>nima q i l d i ?</i>, <i>nima qilyapti?</i>, <i>nima qilmoqchi?</i>). Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar; fe'ning kesim vazifasida kelishi; ot, sifat va fe'lga doir o'zakdosh so'zlar tizimini tuzish. Shu soʻz turkumlari ichida uchraydigan maʼnodosh, qarama-qarshi maʼnoli, bir xil shaklli, koʻp maʼnoli soʻzlar ustida ishlash. Oʻrganilgan yasovchilar yordamida bir turkumdan ikkinchi turkumga oid soʻzlar hosil qilish.
9	Soʻz turkumlari
9.1	Ot (30 soat)
	Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi. Nutqda otlarning egalik qo'shimchalarini olgan va olmagan holda qo'llanishi; egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qo'shiladigan shakllari; egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning talaffuzi va imlosi. Otning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi; matnda va nutqda otlarning bir kelishikda bo'lishi, kelishik qo'shimchali otlarning talaffuzi va imlosi; kelishik qo'shimchali otlarni birikma tarzida yozish; kelishik qo'shimchalarining otni otga, otni fe'lga bog'lashi. Egalik va kelishik qo'shimchalarini chizmalarda belgilash (kitobning varag'i). Ot yasovchi qo'shimchalar. Leksik mashqlar va ular

	yordamida o‘quvchilar nutqini otlar bilan boyitish. Otlarning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlashda “O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi”ning 67-, 93-, 109-, 205- moddalarini tahlil uchun tanlash. “Ekologik munosabatlarni tartibga solish” mavzusida bayon yozish.
9.2	Sifat (26 soat)
	Shaxs va narsaning rangini, shaklini, hajmini, mazasini, hidini, xususiyatini bildirishi, sifatlarning ot bilan ohang yordamida bog‘lanishi; sifatlarning gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi; <i>ko'm-ko'k, oppoq, sap-sariq, och sariq, to'q qizil</i> kabi sifatlarning talaffuzi, yozilishi; sifatning belgi ifodalashi (amaliy tushuncha). Sifatlarning yasalishi; leksik mashqlar va ular yordamida o‘quvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish.
9.3	Son (8 soat)
	Sonning shaxs va narsaning sanog‘ini (miqdorini) va tartibini bildirishi; tartib sonlarning imlosi; sonlarning otga bog‘lanib kelishi; sonlarning otga ohang yordamida bog‘lanishi; sonlarning gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi; sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida yozish; sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishi. Sonlarning yozilishi (<i>yetti, sakkizinchi, 8-mart, 2003-yil, IV sinf</i>). Sonlarning <i>metr, gramm</i> kabi so‘zlar bilan kelganda bitta so‘roqqa javob bo‘lishi (amaliy), <i>ikkov, o'ntacha, beshtadan</i> kabi sonlarning yozilishi (amaliy).
9.4	Kishilik olmoshlari (10 soat)
	Kishilik olmoshlari, ularning uch shaxsni ifodalashi; shaxs (birlik va ko‘plik) kishilik olmoshlarining ot o‘rnida qo‘llanishi; kishilik olmoshlarining kim? so‘rog‘iga javob bo‘lishi; kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, imlosi; olmoshlarning bosh va ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi. Kishilik olmoshlaridan nutqda o‘rinli foydalana olish.
9.5	Fe‘l (30 soat)
	Fe‘l, uning kesim vazifasida kelishi; fe‘l zamonlari, ularning harakatni

	uch zamonning birida bajarilishini bildirishi; o'tgan, hozirgi, kelasi zamon fe'llari, qo'shimchalari; uch zamondagi fe'llarning talaffuzi va imlosi. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi; shaxs-son qo'shimchalarining so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar ekani; shaxs-son qo'shimchalari harakatni uch shaxsning biri tomonidan bajarilishini bildirishi; shaxs-son qo'shimchalarining - yap, -di zamon qo'shimchalaridan so'ng qo'shiladigan shakllari (amaliy); shaxs-son qo'shimchali fe'llarning talaffuzi va imlosi. Fe'l yasovchi qo'shimchalar. Leksik mashqlar va ular yordamida o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish.
10	Bog'lanishli nutq
	Nutq, matn va gapni farqlash; og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirish; matn mazmunini qayta hikoyalatish; matndagi asosiy fikrni aniqlay olish; matnning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish; ular orasidagi bog'lanishni izohlay olish; matnga sarlavha topish. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy–estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatining tashkil etadi. Ta'limiy bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish; matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish; tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish. Ta'limiy bayonlar yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi va atmosferma havosini muhofaza qilish ("Tabiiy boyliklar – davlat muhofazasida"), Orol fojiasi, inqirozining oqibatlari mavzusidagi matnlardan foydalanish. Ta'limiy insho. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan ko'rinish asosida, shuningdek, o'qilgan, kuzatilgan, eshitilgan, ko'rilgan voqea va hodisalar asosida material to'plash, reja va shu asosida insho yozish; bayon va insho rejalarini tuzishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llash. O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kirgan o'simliklar, hayvonlar, ekologik huquqbuzarlik kabi mavzularda insho yozish.
11	Husnixat (18 soat)

	Chiroyli yozish malakalari takomillashtiriladi. Bo‘g‘in, so‘z, gap, matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chirib yozish; eshitib yozish va mustaqil yozish; matnni yozishda sarlavhaning yozilishiga, xat boshidan boshlash; agarda, so‘zlarorasidagi masofaning bir xilligiga, harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishiga, tutashtirilishiga diqqat qaratiladi, hoshiyaga rioya qilish, o‘zining va o‘zgalarning yozuvini grafik tahlil qila olish.
12	O‘quv yili oxiridagi takrorlash. (6 soat)
	O‘quv yili oxiridagi takrorlash, o‘rganilgan bilimlarni eslatish orqali tizimga solish va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchilar bir darsda bir necha turdagi mujassam topshiriqlarni bajaradilar. Takrorlash darslari matn, gap, gap bo‘laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo‘g‘in, alifbo, o‘zak, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari bo‘yicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi. Bu o‘qituvchining boshqa sinflarda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishini ta’minlaydi. O‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan ayrim so‘zlar darslik oxiridagi lug‘atchada berilgan. Darslikda so‘zlar ma’nosi berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan ularni o‘zlashtirishlari talab qilinmaydi.

**Toshkent temiryo‘l muhandislari instituti qoshidagi
2-son akademik litsey bosh o‘qituvchisi:**

X.G‘ulomova